



**OTATURK MODERNIZATSIYASI DAVRIDA TURKIYADA  
AYOLLAR NASHRLARIDA GENDER DISKURSINING SHAKLLANISHI  
(1920–1950)**

*Yusupova Ozoda Abdunazar qizi*

*TDSHU 1-kurs magistranti*

[Ozodayusupova@gmail.com](mailto:Ozodayusupova@gmail.com)

***Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot Usmonlilar imperiyasining parchalanishi va Turkiyaning mustaqil respublika sifatida shakllanishi jarayonida Mustafó Kamol Otaturk tomonidan amalga oshirilgan modernizatsiya siyosati doirasidagi gender islohotlarini tahlil qiladi. Xususan, ushbu davrda turk ayollari uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar hamda ayollar nashrlarida gender munosabatlarining qanday shakllangani yoritiladi.*

*Otaturk rahbarligidagi modernizatsiya loyihasi Turkiya jamiyatida gender munosabatlarini tubdan o'zgartirishga qaratilgan edi. Tadqiqotda davlat tomonidan targ'ib qilingan "zamonaviy turk ayoli" obrazi – ta'lim olgan, kasb egallagan, ijtimoiy hayotda faol, ochiq kiyingan, biroq birinchi navbatda ona va ayol sifatida talqin qilingan shaxs timsoli markaziy o'ringa qo'yiladi. Shuningdek, bir qator ayollar nashrlari misolida milliy identifikatsiya, oilaviy qadriyatlar, ayollar ta'limi, moda va uy bekaligi masalalarining qanday yoritilgani tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar.** Otaturk modernizatsiyasi, zamonaviy turk ayoli, gender diskursi, ayollar nashrlari, respublika davri, gender islohotlari, davlat feminizmi, onalik va xotinlik, milliy identifikatsiya, "Resimli Ay", "Türk Kadını".*

***Abstract.** This study examines the gender reforms implemented during the modernization period led by Mustafa Kemal Atatürk, following the collapse of the Ottoman Empire and the establishment of the Republic of Turkey as an independent state. It explores the new opportunities created for Turkish women during this*



*transformative era and analyzes how gender relations were constructed and represented in women's publications of the time.*

*The modernization project under Atatürk aimed at fundamentally reshaping gender relations within Turkish society. The research focuses on the state-promoted image of the “modern Turkish woman,” portrayed as educated, professionally active, publicly visible, and modern in appearance, yet primarily defined through her roles as a mother and wife. Through an analysis of selected women's periodicals, the study investigates how issues such as national identity, family values, women's education, fashion, and domestic roles were framed and discussed in the context of nation-building and social transformation.*

**Keywords.** *Atatürk modernization, modern Turkish woman, gender discourse, women's magazines, state feminism, early Republican era, gender reforms, motherhood discourse, national identity and gender, “Resimli Ay”, “Türk Kadını”.*

## **Kirish**

XX asr boshlarida Usmonlilar imperiyasining parchalanishi va 1923-yilda Turkiya Respublikasining tashkil topishi mamlakat tarixida tub burilish yasadi. Yangi respublika rahbari Mustafo Kamol Otaturk boshchiligida amalga oshirilgan modernizatsiya siyosati siyosiy, huquqiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda keng qamrovli islohotlarni o'z ichiga oldi. Ushbu jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri jamiyatda ayollarning maqomi va rolini qayta belgilash masalasi bo'ldi. Respublika davri islohotlari ayollarga ta'lim olish, kasb egallash, saylov huquqiga ega bo'lish kabi yangi imkoniyatlarni taqdim etdi. Biroq bu o'zgarishlar nafaqat huquqiy maydonda, balki ijtimoiy ong va madaniy tasavvurlar darajasida ham yangi “zamonaviy ayol” modelining shakllanishini talab qilardi. Modernizatsiya jarayonida ayol obrazi millat qurish loyihasining markaziy elementlaridan biriga aylandi. Yangi respublika o'zini G'arb tamadduniga yaqin, sekulyar va ilg'or davlat sifatida namoyon etishga intilar ekan, ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolligi va tashqi ko'rinishi ushbu modernlikning ramziga aylantirildi. Shu tariqa “zamonaviy



turk ayoli” obrazi davlat tomonidan targ‘ib qilinadigan normativ model sifatida shakllandi. Bu model ta’lim olgan, kasb egallagan, jamoat hayotida faol ishtirok etadigan, zamonaviy kiyinish uslubini qabul qilgan ayolni ifodalardi. Shu bilan birga, u birinchi navbatda millatning onasi, ma’naviy tarbiyachisi va oilaviy qadriyatlarning saqlovchisi sifatida talqin qilinardi. Demak, modernlik va an’anaviylik elementlari bir obraz doirasida uyg‘unlashtirildi.

Mazkur jarayonda matbuot, ayniqsa ayollar nashrlari muhim rol o‘ynadi. Respublika davrida chop etilgan ayollar jurnallari va gazetlari nafaqat axborot tarqatuvchi vosita, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, gender munosabatlarini qayta talqin qiluvchi platformaga aylandi. Ushbu nashrlar orqali ayollarga mo‘ljallangan yangi ijtimoiy me‘yorlar, kiyinish madaniyati, oilaviy mas‘uliyat, ta’lim va kasbiy faoliyat haqidagi qarashlar targ‘ib qilindi. Shuningdek, milliy identifikatsiya jarayonida ayollarning o‘rni va vazifasi muayyan diskurs doirasida ifodalandi. Shu bois ayollar nashrlarini o‘rganish orqali nafaqat gender siyosatini, balki respublika davri ideologiyasining amaliy ko‘rinishlarini ham tahlil qilish mumkin. Bu davrda ayollar nashrlari ikki tomonlama xususiyatga ega edi: bir tomondan, ular davlat modernizatsiya siyosatini qo‘llab-quvvatlovchi va targ‘ib qiluvchi vosita sifatida faoliyat yuritdi; ikkinchi tomondan esa, ayollarning o‘z fikr-mulohazalari, ehtiyojlari va ijtimoiy tajribalarini ifoda etuvchi maydon vazifasini ham bajardi. Shu jihatdan, mazkur nashrlar gender munosabatlarining shakllanishi va qayta qurilishi jarayonida muhim manba hisoblanadi. Ular orqali jamiyatda ayollik, onalik, kasbiy faoliyat va ijtimoiy faollik tushunchalari qanday talqin qilingani, qaysi qadriyatlar ustuvor qo‘yilgani hamda qanday me‘yoriy model ilgari surilgani aniqlanishi mumkin. Xususan, nashrlari misolida “zamonaviy turk ayoli” obrazi qanday shakllantirilgani, milliy identitet va ayollik o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday qurilgani hamda modernizatsiya siyosati doirasida ayollarga yuklatilgan ijtimoiy rollar qanday asoslanganini o‘rganish ko‘zda tutiladi. Tadqiqot natijalari respublika davrida gender munosabatlarining shakllanish mexanizmlarini chuqurroq



anglash hamda ayollar nashrlarining ideologik va madaniy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

## Asosiy qism

XX asrning birinchi yarmi Turkiya tarixida tub siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. 1923-yilda Respublika e'lon qilinishi va yangi davlat boshqaruv tizimining shakllanishi jamiyatning barcha qatlamlariga, xususan, ayollarning huquqiy va ijtimoiy maqomiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayonda matbuot, ayniqsa ayollar jurnallari muhim ideologik va ma'rifiy vosita sifatida namoyon bo'ldi. 1920–1950-yillarda nashr etilgan ayollar jurnallari nafaqat maishiy hayot, tarbiya va moda masalalarini yoritdi, balki yangi respublika qadriyatlari, zamonaviy ayol obrazi va jamiyatdagi gender rollarini shakllantirishda faol ishtirok etdi. Mazkur tadqiqot aynan shu davrdagi ayollar matbuotining mazmun-mohiyati, g'oyaviy yo'nalishi hamda ijtimoiy ta'sirini tahlil qilishga qaratiladi.

1944-yil mart oyida nashr etila boshlangan “Türk Kadını” jurnali Bolalarni himoya qilish agentligi tomonidan chop etilgan oylik nashr edi. Jurnal Istanbuldagi Cumhuriyet bosmaxonasida bosilgan, 20 sahifadan iborat bo'lgan va dastlab 25 kuruş narxda sotilgan. Uning barcha daromadi Bolalarni himoya qilish agentligiga o'tkazilgan. 25x30 sm o'lchamdagi jurnal bir muddat har 15 kunda nashr etilishi rejalashtirilgan bo'lsa-da, amalda oyda bir marta o'quvchilarga yetib borgan. 1947-yil iyul oyidan boshlab uning narxi 35 kuruşgacha ko'tarilgan.

Jurnalning asoschisi va tashabbuskori Fuat Umay bo'lib, u nafaqat Bolalarni himoya qilish agentligi prezidenti, balki Qirklareli viloyatidan parlament a'zosi ham edi. Uning bir vaqtning o'zida davlat muassasasi rahbari va siyosatchi bo'lganligi jurnalning o'sha davrdagi rasmiy siyosiy muhitga mos gender siyosatini yuritganini ko'rsatadi. Darhaqiqat, Fuat Umay Bolalarni himoya qilish agentligi tarkibida boshqa ayollar va bolalar jurnallarini ham nashr ettirgan va shu orqali yakka partiyali davrning zamonaviy millat loyihasiga hissa qo'shgan. Bolalar masalasi Umayning professional hayotida alohida o'rin tutgan. U 1917-yilda Qirklarelida Bolalarni



himoya qilish jamiyatiga asos solgan, shuningdek Anqaradagi shu jamiyatning asoschilaridan biri bo'lgan. Parlamentdagi faoliyati davomida bolalar va sog'liqni saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Shifokor sifatida Istanbul tibbiyot fakultetini tamomlaganligi uning siyosiy faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatgan. Jurnal mualliflari tarkibi asosan tibbiyot va ta'lim sohasi vakillaridan iborat bo'lgan. Ular orasida Nermin Abadan Unat, Doktor Fuat Umay, Doktor Muzaffer Sezer, Cahit Uchuk, Turhan Toker, Doktor Himmet Akın, Muhip Diranas, Doktor Bahtiyar Demirağ, Melih Başar, Doktor Saliha Tuncer, Melahat Sezener, Nihal Yalaza, Tevfik Göyoy, M. Ukutashir, Recai Ant, Rıza Çavdarlı, Azize Duru, Mitat Enç, İsmet Kur va Feriha Baymur kabi mualliflar faol ishtirok etgan. O'sha davrda oilaga va yosh avlodga berilgan e'tibor natijasida sog'liqni saqlash, demografik siyosat, aholi masalalari va ta'limga oid maqolalar ustunlik qilgan. Biroq jurnal ayollar uchun nashr etilganligi sababli, ushbu masalalar bevosita ayollarning mas'uliyati sifatida talqin qilingan. Jurnal ham yakka partiyaviy davrda, ham Ikkinchi jahon urushi yillarida nashr etilgan. Yakka partiyaviylik davrida matbuot ustidan bosim mavjud bo'lib, hukumat siyosatini jamoatchilikka yetkazuvchi bir ovozli matbuot ustunlik qilgan. Urush yillarida esa millatchilik diskursi yanada kuchaygan. Bu kuchayish oilaning rolini yanada markazlashtirdi.

“Türk Kadını” jurnalining diqqatga sazovor jihatlaridan biri uning o'zini “oila jurnali” sifatida ta'riflaganidir. Respublika tashkil etilganidan buyon oila milliy davlat qurilishining asosiy ijtimoiy instituti sifatida ko'rilgan. Boshqa milliy davlat qurish jarayonini boshdan kechirgan mamlakatlarda bo'lgani kabi, oila jamiyatning eng kichik, biroq eng muhim boshqaruv birligi sifatida talqin qilingan. Oilaning uzluksizligini ta'minlash vazifasi esa ayollarga yuklatilgan. Jurnalda ayollikning ideal modeli ishlab chiqiladi. Zamonaviy turk ayoliga bir necha asosiy vazifa yuklatiladi: sog'lom farzandlarni dunyoga keltirish, ularni respublika ideallariga muvofiq tarbiyalash, uy xo'jaligini boshqarish va baxtli oilaviy hayotni ta'minlash, erkak va bolalarga g'amxo'rlik qilish. Ayollarning ta'lim olishi va yordam tashkilotlarida ishtiroki qo'llab-quvvatlangan bo'lsa-da, bu ko'proq bolalarga jamoat



sohasida yaxshiroq g'amxo'rlik qilish zarurati bilan asoslangan. Natijada, ayollarning o'rni asosan uy bilan chegaralangan degan diskurs ustunlik qiladi. Erkak faol, millatni himoya qiluvchi va "Vatan"ni saqlovchi subyekt sifatida tasvirlanadi. Ayol esa erkakning "himoyasi ostidagi", passiv, oilaviy makonda faoliyat yurituvchi shaxs sifatida talqin qilinadi. Bu yerda millatchilik va or-nomus diskursi gender kodlari orqali mustahkamlanadi.

Turhan Tokerning 1946-yilda chop etilgan "Ona-ayol" maqolasida ayol millatning poydevori sifatida tasvirlanadi. Unda ayol "insonning onasi, biolog, psixolog, pedagog va ustozidir" deb ta'riflanadi. Onalik vazifasi diniy-axloqiy diskurs bilan muqaddaslashtiriladi va ayollarning jamiyat hamda oila oldidagi cheksiz vazifalari sanab o'tiladi. Ayollar va bolalar ajralmas birlik sifatida ko'rsatiladi, bola esa onaning davomi va uning mas'uliyati sifatida talqin qilinadi.

1920–30-yillar Turkiya matbuot tarixida muhim o'rin egallagan ayollar va ijtimoiy-ma'rifiy jurnallar qatorida "Resimli Ay" alohida ahamiyat kasb etadi. Jurnalning rasmiy-texnik xususiyatlari, nashriyot siyosati va tashkiliy tuzilmasidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda uning faoliyatini uch asosiy davrga ajratish mumkin:

**Birinchi davr (1924-yil fevral – 1929-yil mart)**

**Ikkinchi davr (1929-yil mart – 1931-yil yanvar)**

**Uchinchi davr (1936-yil mart – 1938-yil dekabr)**

Mazkur davrlashtirish jurnalning hajmi, dizayni, matbaa texnikasi, sahifalash tizimi hamda ma'muriy boshqaruvidagi o'zgarishlar bilan izohlanadi.

**Birinchi davr (1924–1929)**

"Resimli Ay" jurnali 1924-yil fevral oyidan boshlab 48 sahifa hajmda, 24,5 × 33,5 sm o'lchamda, o'rtacha shrift bilan nashr etilgan. Sahifalar uch ustunli ko'rinishda joylashtirilgan, sarlavhalarda bosh harflardan foydalanilgan. Har bir maqola sarlavhasi ostida qisqacha annotatsiya berilgan, undan so'ng muallif ismi (agar mavjud bo'lsa) ko'rsatilgan. Tashqi muqovada jurnal nomi katta klişe bilan yozilgan bo'lib, uning ostida narxi, son raqami va nashr yili qayd etilgan. Ichki



muqovada jurnal nomining o'ng tomonida ma'muriy idora manzili, chap tomonida esa obuna shartlari berilgan. Obuna ma'lumotlari ostida "Turkiyaning yagona oylik jurnali" iborasi joylashtirilgan. Shuningdek, ichki muqovada son raqami, sana va jild raqami ketma-ketlikda ko'rsatilgan. Bu davrda har bir sonning 47–48-sahifalari bosh muharrir Mehmet Zekeriyaga ajratilgan. Mazkur sahifalarda u jurnalning nashriyot siyosatini tushuntirgan, o'quvchilardan kelgan maktublarni sharhlab, ularni tahlil qilgan. Bu holat Mehmet Zekeriya Sinopga surgun qilinguniga qadar davom etgan. 1926-yil mart oyidan boshlab jurnal bir muddat "Sevimli Ay" nomi bilan ham nashr etilgan. 1928-yilda yangi turk alifbosining qabul qilinishi sababli jurnal uch oylik tanaffus qilgan (1928-yil dekabr, 1929-yil yanvar va fevral sonlari chop etilmagan). 1929-yil mart oyidan boshlab jurnal yangi alifbo asosida qayta tashkil etilib, yangilangan shaklda nashr etila boshlagan.

## Ikkinchi davr (1929–1931)

1929-yil mart oyidan boshlab jurnal  $24 \times 33$  sm o'lchamda, 40 sahifa hajmda chop etilgan. Sahifalar yana uch ustunli tarzda joylashtirilgan, sarlavhalarda bosh harflar qo'llanilgan hamda muallif ismi sarlavha ostida berilgan. Tashqi muqovada jurnal nomi katta kliše bilan yozilib, narx va sana ko'rsatilgan. Ichki muqovada esa jurnal nomi takror yozilib, undan keyin son raqami va sana berilgan. Jurnal 1931-yil yanvar oyigacha aynan shu shaklda nashr etilgan. Bu davr mobaynida jami 24 ta son chop etilgan.

## Uchinchi davr (1936–1938)

1931-yil yanvar oyida jurnal faoliyati to'xtatilgan. Uzoq tanaffusdan so'ng 1936-yil mart oyida qayta nashr etila boshlangan. Bu davrda jurnal  $20 \times 30$  sm o'lchamda, 96 sahifa hajmda chiqarilgan. Sahifalar ikki ustunli qilib joylashtirilgan, sarlavhalarda bosh harflardan foydalanilgan. Tashqi muqova rangli bosilgan bo'lib, barcha sonlarda tasvirlardan foydalanilgan. Ichki muqovada o'ng tomonda son raqami va sana, chap tomonda esa narx va obuna shartlari ko'rsatilgan. Jurnalning ma'muriy idorasi Babioli ko'chasidagi Saudiya kitob do'konida joylashgan. Dastlab 1924-yil fevralidan 1926-yil martigacha Mehmet Zekeriya jurnalning ham imtiyoz



egasi, ham mas'ul muharriri bo'lgan. 1926-yil martidan boshlab Nabizoda Hamdi Bey imtiyoz egasi bo'lib, Behchet Bey mas'ul direktor sifatida faoliyat yuritgan. 1936-yildan boshlab esa mas'ul direktor Emin Refik Uzman bo'lgan. Jurnal dastlab 1924-yil fevraldan 1926-yil martgacha "Vatan" matbaasida, 1926-yil martdan 1927-yil martgacha "Tevhid-i Efkâr" matbaasida, 1927-yildan keyin esa "Resimli Ay" bosmaxonasida chop etilgan. Jurnal narxi butun faoliyati davomida o'zgarmagan va 25 sentabrdan sotilgan. Ikkinchi sonidan boshlab jurnal sahifalarida reklama va e'lonlar ham berila boshlagan. Reklamalar ichki sahifalarda ham, ichki va tashqi muqovalarda ham joylashtirilgan.

1929-yildan boshlab "Resimli Ay" sahifalarida she'riyat muntazam ravishda nashr etila boshlagan. Ayniqsa 1929–1930-yillar jurnal tarixida eng ko'p she'r chop etilgan davr bo'lgan. Bu holat o'sha yillarda Ilhomi Bekir Tez va ayniqsa Nâzım Hikmetning ijodiy jihatdan eng samarali bosqichni boshdan kechirayotgani bilan izohlanadi. Nâzım Hikmet "Resimli Ay"da e'lon qilingan she'rlari orqali turk she'riyatining yo'nalishini tubdan o'zgartirdi. U turk she'riyatiga bir vaqtning o'zida shakl va mazmun jihatidan yangilik olib kirdi. O'sha davrga qadar turk she'riyatida asosan aruz va bo'g'in vazni qo'llanilgan bo'lsa, erkin she'r hali to'liq shakllanmagan edi. Rossiyada tahsil olgan yillarida u Vladimir Mayakovskiy (1893–1930) ijodiy qarashlaridan ta'sirlangan. Natijada Nâzım Hikmet metrik va qofiyali she'riyatdan voz kechib, erkin she'rni turk adabiyotiga olib kirgan shoir sifatida maydonga chiqdi. U nafaqat mazmun, balki shaklni ham inqilobiy tarzda yangiladi. Aruz va hece vazni asosida qurilgan an'anaviy poetik tizimni rad etib, erkin vazndagi she'rlar yozdi. Shoir yangi adabiyot yaratishni maqsad qilgan edi va bu jarayonni she'riyat texnikasini o'zgartirishdan boshladi. U aruz va hece davri tugaganini ta'kidlab, yangi poetik uslub tez orada keng qabul qilinishini da'vo qildi. Hatto Yildiz Sertel yetti yoshida kasalxonada yozgan she'ri misolida ham u yangi poetik texnikaning hayotiyiligini isbotlashga harakat qildi. Nâzım Hikmetga ko'ra, yangi she'riyat texnikasi sun'iy emas, balki jonli og'zaki tilga asoslangan edi. U eski she'riyatni sun'iy, xalqdan uzoq va qoliplashgan shakl deb baholadi. Yangi she'riy



shaklni esa “kiyim” emas, balki “charm”ga o‘xshatib, uning til mohiyatiga singib ketganligini ta’kidladi. Nâzım Hikmet san’atni “san’at uchun” emas, balki ijtimoiy va inqilobiy maqsadlar uchun vosita deb bildi. U o‘z mafkurasini she’riyat orqali yoyishni maqsad qilgan va adabiyotni ijtimoiy kurashning muhim maydoni sifatida ko‘rgan.

“Resimli Ay” jurnali Turkiya Respublikasi shakllanish davrida ayollar masalasini keng va ko‘p qirrali tarzda yoritgan muhim matbuot organlaridan biri hisoblanadi. Jurnal sahifalarida ayollar nafaqat maishiy hayot doirasida, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida tasvirlangan. Avvalo, jurnal ayol huquqlari va fuqarolik masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Respublika islohotlari fonida ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, ularning ta’lim olish, mehnat qilish va ijtimoiy hayotda faol qatnashish huquqlarini targ‘ib etuvchi maqolalar muntazam chop etilgan. 1930-yilda ayollarga munitsipal saylovlarda, 1934-yilda esa parlament saylovlarida ovoz berish huquqi berilishi jarayoni jurnalda sharh va tahliliy maqolalar orqali yoritilgan. Shuningdek, nikoh, ajralish, meros va fuqarolik huquqiga oid yangi qonunchilik normalari tushuntirilib, o‘quvchi ayollar uchun izohlangan.

Jurnalning muhim yo‘nalishlaridan yana biri ijtimoiy-maishiy hayot va zamonaviy ayol qiyofasini shakllantirish masalasi bo‘lgan. Unda zamonaviy kiyinish madaniyati, gigiyena, sog‘liqni saqlash, onalik va bolalik parvarishi, uy xo‘jaligini samarali yuritish kabi mavzularda maqolalar berilgan. Biroq bu mavzular an’anaviy doirada emas, balki zamonaviylashuv jarayoni bilan bog‘liq holda talqin qilingan. Shahar ayolining kundalik hayoti, ishchi va ziyoli ayol obrazlari, oilada tenglik masalalari haqida ham materiallar e’lon qilingan. Adabiy yo‘nalishda ham ayollar masalasi muhim o‘rin egallagan. Yuqorida takidlanganidek 1929-yildan boshlab jurnal sahifalarida she’riy asarlar muntazam nashr etila boshlagan, ayniqsa 1929–1930-yillar she’riyatning eng faol davri bo‘lgan. Bu jarayonda Nâzım Hikmetning erkin vazndagi she’rlari alohida ahamiyat kasb etgan. Uning asarlarida ayol obrazi, sevgi, ijtimoiy tenglik va zamonaviylik g‘oyalari yangicha poetik shaklda ifoda



etilgan. Jurnalda shuningdek Ilhomi Bekir Tez va boshqa mualliflarning she'rlari ham chop etilgan. Ayol obrazini markazga qo'ygan hikoya va badiiy ocherklar ham muntazam berib borilgan. Bundan tashqari, jurnal sahifalarida mashhur ayollar, ijodkorlar va jamoat arbobalari bilan suhbatlar, portret-ocherklar e'lon qilingan. Ayollarning ta'lim, san'at va mehnat sohasidagi yutuqlari keng yoritilgan. O'quvchi maktublari asosida tashkil etilgan sahifalarda nikoh, muhabbat, mustaqillik, ishlash yoki uyda qolish kabi masalalar muhokama qilingan. Dastlabki yillarda bosh muharrir Mehmet Zekeriya o'quvchilar bilan bevosita muloqot olib borgan va kelgan maktublarni sharhlab borgan. "Resimli Ay"ning yana bir muhim xususiyati vizual materiallardan keng foydalanilganidir. Rangli muqovalar, ayollar tasvirlari, moda va sahna san'atiga oid fotosuratlar jurnalning estetik qiyofasini belgilagan. Maqolalar ko'pincha mavzuga mos ilustratsiyalar bilan boyitilgan. Umuman olganda, "Resimli Ay" jurnali ayollarni faqat maishiy doira bilan cheklab qo'ymagan, balki ularni modern turk jamiyatining faol subyekti sifatida talqin qilgan. Jurnal sahifalarida ayol huquqlari, ta'lim, mehnat, adabiyot, sog'liq, moda va ijtimoiy tenglik masalalarining yoritilishi 1920–30-yillar Turkiyasida zamonaviy ayol diskursining shakllanishida muhim o'rin tutgan.

## **Xulosa**

Mustafa Kamol Otaturk rahbarligidagi Turkiya Respublikasining dastlabki modernizatsiya davri (1920–1950-yillar) jamiyatda gender munosabatlarini tubdan o'zgartirishga qaratilgan keng ko'lamlil islohotlarni o'z ichiga oldi. Ushbu jarayonda ayollar huquqlari (ta'lim, kasbiy faoliyat, saylov huquqi va boshqalar) kengaytirilgan bo'lsa-da, davlat tomonidan targ'ib qilingan "zamonaviy turk ayoli" obrazi ikki tomonlama xususiyatga ega edi: bir tomondan ta'limli, kasb egallagan, ijtimoiy hayotda faol va zamonaviy (ochiq) kiyinish uslubiga ega shaxs sifatida tasvirlansa, ikkinchi tomondan birinchi navbatda ona, xotin va oilaviy qadriyatlarning asosiy saqlovchisi sifatida talqin qilindi. Bu model milliy identifikatsiya va millatni qurish loyihasining markaziy elementi bo'lib, modernlik va an'anaviylik elementlarini birlashtirishga xizmat qildi. Ayollar nashrlari bu diskursni shakllantirish va targ'ib



qilishda muhim vosita vazifasini o'tadi. Ular nafaqat davlat siyosatini qo'llab-quvvatlovchi platforma, balki ayollarning o'z tajribalari, ehtiyojlari va mulohazalarini ifoda etuvchi maydon ham bo'ldi. Tadqiqotda tahlil qilingan ikki muhim nashr "Resimli Ay" (1924–1938, turli davrlar) va "Türk Kadını" (1944-yildan) bu jarayonning turli jihatlarini yorqin namoyon etadi.

"Resimli Ay" jurnali 1920–1930-yillarda ayollar masalasini keng va ko'p qirrali yoritgan eng muhim nashrlardan biri edi. U ayollar huquqlari (saylov huquqi, nikoh, ajralish, meros qonunlari), ta'lim, mehnat faoliyati, ijtimoiy tenglik, zamonaviy kiyinish madaniyati, gigiyena, onalik va uy xo'jaligi masalalarini faol muhokama qildi. Jurnal sahifalarida shahar ayoli, ishchi va ziyoli ayol obrazlari targ'ib etilib, ayollar faqat maishiy doira bilan cheklanmagan, balki modern jamiyatning faol subyekti sifatida ko'rsatildi. Shu bilan birga, vizual materiallar (rangli muqovalar, moda fotosuratlari), she'riyat (xususan, Nâzım Hikmetning erkin she'rlari) va o'quvchi maktublari orqali gender munosabatlari, sevgi, mustaqillik va oilaviy hayot masalalari yangicha talqin qilindi. Jurnal dastlab respublika islohotlarini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da, keyinchalik ijtimoiy tanqidiy va hatto sotsialistik yo'nalishlarga ham o'tgan davrlari bo'ldi.

"Türk Kadını" jurnali esa 1940-yillarda (Ikkinchi Jahon urushi va yakka partiyaviylik davrida) Bolalarni himoya qilish agentligi tomonidan nashr etilib, davlatning rasmiy gender siyosatini yanada aniq ifodaladi. Jurnal o'zini "oila jurnali" deb ta'riflab, oilani milliy davlat qurilishining asosiy instituti sifatida ko'rsatdi. Ayolning asosiy vazifalari sog'lom farzand tug'ish, ularni respublika g'oyalariga muvofiq tarbiyalash, uy xo'jaligini boshqarish va oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish deb belgilandi. Ta'lim va jamoat faoliyati qo'llab-quvvatlansa-da, bu ko'proq bolalarga yaxshiroq g'amxo'rlik qilish zarurati bilan asoslandi. Natijada, ayol asosan uy va oila doirasida faol deb tasvirlandi; erkak esa millatni himoya qiluvchi faol subyekt sifatida ko'rsatildi. Maqolalarda (masalan, Turhan Tokerning "Ona-ayol" maqolasi) onalik muqaddaslashtirilib, ayol millatning poydevori, biolog, psixolog va tarbiyachisi sifatida ulug'landi.



Umuman olganda, 1920–1950-yillarda ayollar nashrlarida shakllangan gender diskursi Otaturk modernizatsiyasining ikki tomonlamaligini aks ettirdi: ayollarga yangi huquqlar va imkoniyatlar berilgan bo‘lsa-da, ularning ijtimoiy roli asosan oilaviy va reproduktiv vazifalar bilan chegaralandi. Bu davr matbuoti davlat ideologiyasini targ‘ib qilish bilan birga, ayollarning ovozi eshittirish va gender normalarini muhokama qilish maydoni bo‘lib xizmat qildi. Natijada, “zamonaviy turk ayoli” obrazi milliy modernlashuv loyihasining ramzi sifatida mustahkamlandi, ammo bu obraz ko‘pincha an’anaviy gender rollarini yangi shaklda saqlab qoldi. Ushbu tadqiqot respublika davrida gender munosabatlarining shakllanish mexanizmlarini, matbuotning ideologik rolini va ayollarning jamiyatdagi o‘rnini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Arat, Y. (1994). *The patriarchal paradox: Women and the state in Turkey*. Princeton University Press.
- Çakır, S. (1996). *Osmanlı kadın hareketi*. Metis Yayınları.
- Durakbaşa, A. (1998). *Kemalist ideolojide kadın imgesi*. In A. İnsel (Ed.), *Modern Türkiye’de siyasi düşünce* (pp. 151–172). İletişim Yayınları.
- Göle, N. (1996). *Modern mahrem: Medeniyet ve örtünme*. Metis Yayınları.
- İnan, A. (1980). *Atatürk ve Türk kadını*. Türk Tarih Kurumu Yayınları.
- İstanbul Kadın Kütüphanesi ve Bilgi Merkezi Vakfı. (2023). *1920–1950 yılları kadın dergileri kataloğu*. İstanbul Kadın Kütüphanesi Yayınları.
- Kandiyoti, D. (1991). *Women, Islam and the state*. *Middle East Report*, (173), 9–14.
- Kandiyoti, D. (1997). *Gendering the modern: On missing dimensions in the study of Turkish modernity*. In S. Bozdoğan & R. Kasaba (Eds.), *Rethinking modernity and national identity in Turkey* (pp. 113–132). University of Washington Press.
- Tashkıran, T. (1973). *Cumhuriyetin 50. yılında Türk kadın hakları*. Başbakanlık Basımevi.
- Tekeli, Ş. (1982). *Türkiye’de kadınların siyasal hayata katılımı*. *Toplum ve Bilim*, (17), 67–81.



Toprak, Z. (1988). Türkiye’de kadın özgürlük hareketi. Tarih ve Toplum, 10(55), 25–31.

Toprak, Z. (2014). Türkiye’de kadınların modernleşmesi ve basın (1908–1950). Tarih Vakfı Yurt Yayınları.

Zihnioğlu, Y. (2003). Kadınsız inkılap: Nezihe Muhiddin, Kadınlar Halk Fırkası, Kadın Birliği. Toplumsal Tarih, (112), 122–129.

Zihnioğlu, Y. (2006). Kadınsız inkılap: Nezihe Muhiddin, Kadınlar Halk Fırkası, Kadın Birliği. Metis Yayınları.

Cumhuriyet Arşivi. (1923–1950). Ayollar matbuoti va gender siyosatiga oid hujjatlar. Ankara.